

**O'ZBEKISTONDA ICHKI TURUZM RIVOJLANISHDAGI MAVJUD
BO'LGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARIGA BERILGAN
TAKLIFLAR.**

Davronova Ohista Azimjonovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti 3 kurs talabasi.

Ohistadavronova70@gmail.com

Guruh: TOUE31

Telefon:+998 88 175 75 45

Xudayberganov Sunatillo

Telefon:+998 97 013 77 78

khudoyberganivsunatillo@gmail.com

Ilmiy rahbar: Nurmatova Sitora

Sitora-nurmatova@mail.ru

Telefon:+998 97 751 07 31

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistonda ichki turuzmning rivojiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolarni ko'rib chiqishga qaratilgan bularga infratuzilmalarning kamchiligi marketingning yetarli darajada rivojlanmaganligi va turustik faoliyat turlarining cheklanganligi; xususan turuzm iqtisodiyoti muhim bir yonalish hisoblanib insonlarni ehtiyojlarini qondirishga va aholi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan xizmat korsatish.*

Kirish so'zlar *Ichki turizm, turagent, marketing, iqtisodiyod, memoriy obidalar, turaperatorlar.*

**PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN
UZBEKISTAN AND PROPOSALS ON WAYS TO SOLVE THEM.**

Abstract: *This article aims to consider several problems that hinder the development of the domestic economy in Uzbekistan, including the lack of infrastructure, insufficient development of marketing and limited types of tourism activities; in particular, the tourism economy is considered an important sector, it is a type of service aimed at meeting people's needs and improving the standard of living of the population.*

Keywords: *Domestic tourism, travel agency, marketing, economy, monuments, tour operators.*



Kirish.

Turizm (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Ichki turizm esa - har qanday mamlakat aholisining o'z mamlakatida qilgan sayohatlari. Turizmning bu turining asosiy xususiyati daromadlarni mamlakat hududlari o'rtasida qayta taqsimlash va milliy iqtisodiyotni rag'batlantirish (kapital mamlakatdan tashqariga chiqarilmaydi, balki uni rivojlantirish uchun ishlatiladi); Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk⁵⁸1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta⁵⁹21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat,bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaitirish va boshqalardan iborat."O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik⁶⁰ yo'nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent). Bu yo'nalish eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq; ekologik turizm yo'nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar).Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; arxeologik turizm

⁵⁸ Tomas Kuk-Birinchi sayyohlik temir yo'l tashkil qiladi.

⁵⁹ Ibn Battuta-21 yoshda shimoliy sharqiy afrikani piyoda sayohat qilgan sayyoh.

⁶⁰ Klassik-3ta yonalish boyicha sayyohat qilish (Buxoro,Samarqand,Xiva)



yo'nalishi (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'ylab). Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi; ekstremal⁶¹ turizm yo'nalishi (Chimyon, Farg'ona vodiysi, Orol bo'yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo'ylab); sayohatlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yilda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Yurtimizda so'nggi yillarda ichki turizm o'sib bormoqda, mahalliy aholi o'z mamlakati bilan tanishayotgani ko'paymoqda. O'zbekiston o'zining boy tarixidan tortib, tabiiy go'zalligi va jo'shqin madaniyatigacha ko'p narsaga ega mamlakat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: Mahalliy sayyohlar uchun asosiy diqqatga sazovor joylardan biri mamlakatning tarixiy va madaniy obidalaridir. O'zbekistonda qadimiy Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari kabi dunyoning eng ko'zga ko'ringan tarixiy obidalarini joylashgan. Bu shaharlar mamlakatning boy tarixi va arxitekturasi haqida tasavvurga ega bo'lib, tarix va madaniyatga qiziqqan har bir kishi tashrif buyurishi shart deya etirof etiladi. Yurtimizda – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalariga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2022-yilda ichki turizm hajmi 5 mln kishidan oshdi. Bu haqda Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lum qildi. Yil oxiriga qadar mazkur ko'rsatkichni ikki barobarga ko'paytirish rejalashtirilmoqda. Hozirgi kunda joylashtirish vositalari soni 1579 ta, oilaviy mehmon uylari esa 2667 tani tashkil etmoqda. Shuningdek, mamlakat bo'yicha 1604 ta turkompaniya va turagentlar, 2400 dan oshiq gidlar turistlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Mavzuni dolzarbligi:

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shuvchi tarmoq sifatida qaralib, tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida zaruriy

⁶¹ Ekstremal-Malum darajada xavli bo'gan turizm.



me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Respublikada sayyohlik industriyasini jadal rivojlantirish maqsadida 2016-2022 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi bir qator Farmon va qarorlari qabul qilindi: 2017-yil 4-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risi"dagi PF-5033-son Farmonda mehmonxona va turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga bir nechta imtiyozlar berilishi ko'rsatib o'tilgan; 2017-yil 16-avgustdagi "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ3217-son qarorda "Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, ... milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish" maqsad qilib olindi; 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmonda bir qator xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun O'zbekiston hududiga kirish vizasi tartibi soddalashtirildi hamda elektron kirish vizalarini berish tizimi ishga tushirilishiga ko'rsatma berilgan; 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-350 son qarorda kirish turizmini yanada rivojlantirish maqsadida viza rejimini yanada soddalashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan; 2018 yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-son qarori asosan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5611son, 2019 yil 13 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5781-son Farmonlari, 2019 yil 5 yanvardagi «Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4095-son, 2020 yil 19 iyundagi «Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4755-son qarorlari respublikada sayyohlik industriyasini rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni soha rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu Farmonga binoan mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm



salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar va ularni amalga oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini rivojlantirish mamlakat oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi.

O'zbekistonda ichki turizmning rivojiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolarni ko'rib chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda ichki turizm salohiyatini o'rganishda dialektik⁶² va tizimli yondashuv, kompleks⁶³ baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv, hamda barqaror turizm elementlarini joriy imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida statistik tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda ichki turizm salohiyatini o'rganishda dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv, hamda barqaror turizm elementlarini joriy imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida statistik tahlildan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Qayd etilishicha, O'zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlantirilishi mamlakatimizni ushbu yo'nalishdagi yuqori ko'rsatkichli xalqaro reytinglarga kiritish imkonini berdi. Xususan, o'tgan yil davomida O'zbekiston 10 ga yaqin nufuzli nashrlar («The New York Times» (AQSh), «The Guardian» (Buyuk Britaniya), reyting kompaniyalari va portallari («CrescentRating», «Wegoplace») tomonidan eng sayohatbop turistik mamlakatlardan biri sifatida tan olindi. Joriy yil boshida BMT⁶⁴ Jahon sayyohlik tashkiloti O'zbekistonni turizm sohasi tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etdi. Mamlakatimiz reytingda Janubiy Koreya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi mamlakatlarni ortda qoldirib, to'rtinchi o'rinni egalladi. Ta'kidlash joiz, soha statistikasini takomillashtirish 2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga birinchi marta Jahon sayyohlik tashkilotining «Compendium of Tourism Statistics 2013-2017» statistik to'plamiga kirish imkonini

⁶² Dialektik-voqealik

⁶³ Kompleks-Bog'liqlik


⁶⁴ BMT-Birlashgan mamlakatlar tashkiloti.



berdi.«Compendium of Tourism Statistics» har yili 200 dan ortiq mamlakat turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlarining yangilanib boruvchi bazasi hisoblanadi. Jahon turizm va sayohatlar kengashi (WTTC)⁶⁵, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar uchun dunyo mamlakatlari turizm reytingini tuzishda manba bo'lib xizmat qiladi. Eng nufuzli xalqaro reytinglardan biri hisoblangan «WTTC» reytingida O'zbekiston 183 o'rinni egallagan. Milliy statistika tizimi metodologiyasini takomillashtirish hamda turizmni tezkor rivojlantirish natijasida 2021 yilga borib, mamlakatimizning reytingda yetakchi yuztalikda qayd etilishi kutilmoqda. Oxirgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ichki turizm yillar davomida barqaror o'sib bormoqda. 2019-yilda mamlakatimizda 3,3 milliondan ortiq mahalliy sayyoh bo'ldi, bu o'tgan yilga nisbatan 10 foizga ko'pdir. Mahalliy sayyohlarning asosiy qismi Toshkent shahridan, ikkinchi o'rinda Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlaridan kelganlar. O'zbekistonda ichki sayohat qilishning asosiy sabablari madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylar, tabiat va ochiq havoda sayr qilish hamda diniy turizmdir. Hukumat ichki turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash, masalan, yangi mehmonxonalar qurish va tarixiy joylarni ta'mirlashga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. O'zbekistonda kichik oilaviy biznes ortib yirik xalqaro tarmoqlargacha bo'lgan 1000 dan ortiq mehmonxona va mehmonxonalar mavjud. Bu mehmonxonalarning aksariyati sayyohlar uchun mashhur Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yirik shaharlarda joylashgan. O'zbekistondagi aksariyat mehmonxonalar ham xorijiy, ham mahalliy sayyohlarni joylashtirishga mo'ljallangan. Biroq, mahalliy aholiga maxsus xizmat ko'rsatadigan, mahalliy sayohatchilar uchun maxsus tariflar va paketlarni taklif qiladigan ba'zi mehmonxonalar mavjud. Bu mehmonxonalarni shaharda ham, qishloqda ham uchratish mumkin va ular ko'pincha O'zbekiston madaniyati va mehmondo'stligining haqiqiy tajribasini taqdim etadi. 2020 yilgi ma'lumotga qaraganda Yurtimizda – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Hozir esa bu korsatgish raqamlarda ancha o'sganini guvohi bolib turubmiz.

⁶⁵ WTTC-World Travel and Tourism Council





1-rasm. O'zbekiston tarixiy madaniy ob'ektlari soni 2023 yil ma'lumoti.

O'zbekistonda ichki turizmga qiziquvchilar soni keskin ortiq bormoqda va foiz korsatkichlarida bu sonlar 63,2% ni ayollar va 36,8% ni erkaklar tashkil etmoqda va bundan ko'rinib turibdiki sayyohat qilishga koproq ayollar qiziqadi yani talabalar orasida. Dunyo bo'ylab rivojlangan ichki turizm sanoati bilan mashhur bo'lgan bir qancha mamlakatlar mavjud. Bu mamlakatlar o'zlarining turli xil diqqatga sazovor joylari, tarixiy obidalari ko'ngilochar imkoniyatlari va o'yin-kulgi va dam olish tajribasini qidirayotgan sayyohlarga xizmat ko'rsatadigan infratuzilmalari bilan mashhur.

Ichki turizm yaxshiroq rivojlangan mamlakatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Turkiyada oxirgi yillarda ichki turizm barqaror rivojlanmoqda. Turkiya Statistika tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyadagi mahalliy sayyohlar soni 2019-yilda o'tgan yilga nisbatan 11,4 foiz ortib, jami 56,88 million kishiga yetdi. Bu o'sishning sabablaridan biri hukumatning "Turkiya turizm haftaligi", "O'z yurtini kashf et" kabi kampaniyalar bilan ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan harakatlaridir. Bundan tashqari, byudjet aviakompaniyalarining ommalashib borayotgani va yangi sayyohlik yo'nalishlarining rivojlanishi mamlakat bo'ylab sayohatlarni yanada qulay va arzonroq qildi. Bundan tashqari, ko'plab turklar o'z mamlakatlarining go'zalligi va xilma-xilligini qadrlay boshladilar, bu esa turli mintaqalar va shaharlarni o'rganishga qiziqishni kuchaytirdi. Bu shuningdek, gastronomik turizm, madaniy turizm va sarguzasht turizmi kabi nish turizmining rivojlanishiga olib keldi. Umuman olganda, Turkiyada ichki turizm o'sishda davom etishi kutilmoqda.

2. Saudiya Arabistoni o'zining turizm sanoatini ham ichki, ham xalqaro miqyosda rivojlantirishga katta sarmoya kiritmoqda. 2019-yilda mamlakat ichki turizmni rivojlantirish va mamlakatning madaniy merosi, tabiiy diqqatga sazovor joylari va zamonaviy ko'ngilochar takliflarini namoyish etishga qaratilgan "Saudiya fasllari" tashabbusini boshladi. Tashabbus yil davomida mamlakatning turli



hududlarida o'tkaziladigan turli tadbirlar va festivallarni o'z ichiga oldi. Bundan tashqari, mamlakat o'sib borayotgan turizm sanoatini qo'llab-quvvatlash uchun mehmonxonalar, kurortlar va istirohat bog'lari kabi infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda.

Bu mamlakatlarni O'zbekiston bilan solishtirganda shuni ta'kidlash kerakki. O'zbekistonda hali ham ichki turizm indsturiyasini rivojlantirmoqda. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy arxitekturasi va ajoyib tabiat manzaralari bilan mashhur bo'lsa-da, havolanki infratuzulma hali ham muammo bo'lmoqda. O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanmaganligining yana bir sababi reklama va marketing yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi ichki turizmga mahalliy aholini jalb qilishga qaratilgan bir qancha qarorlar imzolangan albatta. Infratuzilmaning yetishmasligi – O'zbekistonning ko'p hududlarida turizm uchun tegishli infratuzilma yetishmasligi mavjud. Bunga transport, turar joy va boshqa xizmatlar kiradi. Hukumat ko'proq sayyohlarni jalb qilish uchun infratuzilmani yaxshilashga sarmoya kiritishi kerak va yuqorida aytib o'tganimdek eng katta muammo axborot olish imkoniyati cheklangan - O'zbekistonda ko'pchilik mamlakat ichidagi turistik diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumotga ega emas. Hukumat sayyohlik joylari va butun mamlakat bo'ylab sodir bo'layotgan voqealari haqida ma'lumot beruvchi platforma yaratish ustida ishlashi kerak va shuni aytib o'tish joizki Madaniy to'siqlar – O'zbekistonda ba'zi odamlar mamlakatning notanish joylariga sayohat qilishda noqulaylik his qilishlari mumkin chunki Cheklangan reklama - O'zbekistonda ichki turizm yetarlicha targ'ib etilmagan. Hukumat va xususiy sektor mamlakatning turistik diqqatga sazovor joylarini targ'ib qilish va mahalliy aholini mamlakat ichida sayohat qilishga undash uchun hamkorlik qilishi kerak mahalliy aholi uchun transportga va barcha infratuzulma uchun chegirmalar tashkil qilish kerak.

Xulosa va takliflar.

Olingan natijalarga ko'ra man shuni aytaolamanki O'zbekistonda marketingni va mahalliy aholini ichki turizmga qiziqtirish va tarixiy madaniy obyektlarni rivojlantirish kerak. Aniqroq qilib aytganda reklamani yulga quyish joiz Shuning uchun men izlanishlarimdan kelib chiqqan holda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko'rishni taklif qilaman:

1. Samarqand, Buxoro va Xorazim shaharlarida o'ziga xos turizm infratuzilmasini qurish
2. Korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash.
3. Turizm infratuzilmasiga ko'proq byudjet mablag'larini sarflang va ko'proq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.



4. Mahalliy aholini mamlakat bo'ylab sayohat qilishni rag'batlantirish: ko'rgazmalar, shoular, konsertlar va hk.

5. Respublikada turistik salohiyatga ega viloyatlar shahar tuzilishini takomillashtirishda jahon tajribasini qullash

6. Turizm sohasini rivojlantirishda yashirin iqtisodiyotni ta'sirini kamaytirish choralarini ishlab chiqish.

O'zbekiston o'zining sayyohlik salohiyatidan foydalanishi va iqtisodiy o'sishini oshirishi mumkin. Umuman olganda, ichki turizm O'zbekiston uchun katta istiqbolga ega bo'lgan soha bo'lib, uning salohiyatiga to'liq erishish uchun puxta rejalashtirish va investitsiyalarni talab qiladi. Ushbu maqolada biz O'zbekistonda ichki turizmning bugungi holati, uning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni o'rgandik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Travel and Tourism Economic Impact 2019. <https://www.wttc.orghttps://www.slovenia.info/uploads/dokumenti/raziskave/raziskave/world2019.pdf> (2019 yil mart)

2. World travel and Tourism Council.org. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact>

3. Travel and Tourism Economic Impact 2019. <https://www.slovenia.info/uploads/dokumenti/raziskave/raziskave/world2019.pdf>(2019 yil mart)

4. Global Economic Impact and Trends 2020. <https://wttc.org/Portals/0/Documents/Reports/2020/Global%20Economic%20Impact%20Trends%202020.pdf?ver=2021-02-25-183118-360>

5. <https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-univirozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" 2017, 2016-yillik statistik byulleteni ma'lumotlari.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" 2021 yil.

